

KASBIY PEDAGOGIK IMIDJNI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK OMILLARI

Mo’ydinova Shoxsanam Doniyorbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
+998905240995

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6404-3994>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21213650>

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak pedagoglarning kasbiy imidjini shakllantirish jarayonida akmeologik omillari metodologik va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsning kasbiy o’zini namoyon etishida ijtimoiy-psixologik omillar, ayniqsa, muloqot madaniyati, empatik tinglash, verbal va nonverbal ifoda vositalari orqali o’qituvchining ijobiy kasbiy obrazini konstruksiyalash mexanizmlari o’rganilgan. Shuningdek, kasbiy imidjning tarkibiy komponentlari — identifikatsion, refleksiv va sotsial-perseptiv jihatlarining kommunikativ kompetensiyalar bilan o’zaro bog’liqligi tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi

Kalit so’zlar: kasbiy imidj, ta’lim jarayoni, akmeologik muhit, tarbiya, imijni shakllantirish, kasbiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируется методологическое и практическое значение коммуникативных компетенций в процессе формирования профессионального имиджа будущих педагогов в высших педагогических учебных заведениях. Исследование раскрывает социально-психологические факторы профессиональной самореализации личности, в частности культуру общения, эмпатическое слушание, вербальные и невербальные средства выражения, посредством которых конструируется позитивный профессиональный образ преподавателя. Рассмотрена взаимосвязь между структурными компонентами профессионального имиджа — идентификационным, рефлексивным и социально-перцептивным — и уровнем развития коммуникативных компетенций на основе системного подхода.

Ключевые слова: профессиональный имидж, образовательный процесс, ответственность учителя, воспитание, формирование имиджа, профессиональное развитие.

Abstract: This article analyzes the methodological and practical significance of communicative competencies in the process of forming the professional image of future teachers in higher pedagogical education institutions. The study explores the socio-psychological factors of professional self-realization, particularly communication culture, empathic listening, and verbal and nonverbal means of expression through which a positive professional image of the teacher is constructed. The interrelation between the structural components of professional image—identification, reflexive, and socio-perceptive—and communicative competence development is examined through a systemic approach.

Keywords: pedagogical and professional image, educational process, responsibility of the teacher, upbringing, image formation, professional development.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo’yilayotgan talablar pedagog kadrlarning nafaqat kasbiy kompetentligini, balki ularning kasbiy pedagogik imidjini ham rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy

o’qituvchi ta’lim jarayonining tashkilotchisi, innovator, kommunikator va ijtimoiy lider sifatida namoyon bo’lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning akmeologik omillarini aniqlash va ularning ta’sir mexanizmlarini ilmiy asoslash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risidagi Farmonida aholi talabalariga va xalqaro standartlarga to’liq javob beradigan ta’lim tizimini rivojlantirish, har bir insonning o’z salohiyatini ro’yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ta’lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash vazifalari belgilab berilgan. ([O’zbekiston Respublikasi Hukumat portali](#))

Mazkur strategik vazifalar pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishiga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Ayniqsa, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy o’zini anglash, pedagogik refleksiya, kommunikativ madaniyat, liderlik sifatleri va o’z-o’zini rivojlantirishga tayyorligi kabi akmeologik omillarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogning ijobiy kasbiy imidji uning ta’lim sifati, pedagogik mahorati hamda jamiyatdagi ijtimoiy mavqei bilan uzviy bog’liqdir.

Akmeologiya fanida shaxsning kasbiy yetuklik cho’qqisiga erishishi, o’z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon qilishi va professional muvaffaqiyatga erishish mexanizmlari tadqiq etiladi. Shu sababli kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirish jarayonini akmeologik yondashuv asosida o’rganish bo’lajak pedagoglarning kasbiy kamolotini ta’minlashda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Akmeologik omillar pedagogik faoliyatga motivatsion tayyorgarlikni kuchaytirish, kasbiy o’zlikni shakllantirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, pedagogik kompetentlik, pedagogik mahorat va professional rivojlanish masalalari yetarlicha tadqiq etilgan bo’lsa-da, pedagogik oliy ta’lim talabalarida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning akmeologik omillari hamda ularning o’zaro integratsiyasi masalalari hali to’liq ilmiy yechimga ega emas. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi va kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning akmeologik asoslarini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaning maqsadi pedagogik oliy ta’lim talabalarida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishga ta’sir etuvchi akmeologik omillarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika, psixologiya va akmeologiya fanlarining tutashgan nuqtasida o’rganilayotgan dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Akmeologik yondashuv shaxsning kasbiy yetuklikka erishishi, o’z imkoniyatlarini to’liq namoyon qilishi hamda professional faoliyatda yuqori natijalarga erishish qonuniyatlarini o’rganishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, bo’lajak

o’qituvchilarning kasbiy pedagogik imidjini rivojlantirish jarayonida akmeologik omillarning ahamiyatini aniqlash alohida ilmiy qiziqish uyg’otmoqda.

Akmeologiya fanining nazariy asoslari rus olimlari A.A. Derkach, N.V. Kuzmina va A.A. Bodalev tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, ular kasbiy mahoratning eng yuqori bosqichiga erishishda motivatsiya, refleksiya, o’z-o’zini rivojlantirish va ijodiy faollik muhim omillar ekanligini asoslaganlar. Tadqiqotchilar fikricha, kasbiy muvaffaqiyatga erishish jarayoni shaxsning ichki imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish bilan bevosita bog’liqdir.[1]

Zamonaviy tadqiqotlarda o’qituvchining professional identifikatsiyasi va kasbiy o’zligini anglash pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinmoqda. Rushton (2023) o’qituvchi identifikatsiyasiga oid ilmiy izlanishlarni tahlil qilib, professional o’zlikning shakllanishi pedagogning kasbiy rivojlanish traektoriyasini belgilashini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, kasbiy o’zlikning rivojlanganligi pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorligi va ijtimoiy faolligini oshiradi.

Laine va Tirri (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda refleksiya, o’z-o’zini tahlil qilish va kasbiy rivojlanishga yo’naltirilgan tafakkur pedagogning professional kamolotini ta’minlovchi muhim akmeologik omillar sifatida e’tirof etilgan. Olimlarning fikricha, refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganligi pedagogning kasbiy faoliyatini tanqidiy baholash va takomillashtirish imkonini beradi.

Pedagogik imidj masalalarini tadqiq qilgan Sidorchuk (2023) pedagogik imidjni pedagogning kasbiy kompetentligi, kommunikativ madaniyati, axloqiy sifatleri va tashqi namoyon bo’lish shakllarining integrallashgan ko’rinishi sifatida tavsiflaydi. Tadqiqotda pedagogik imidjning shakllanishida shaxsiy rivojlanish va kasbiy o’zini takomillashtirish jarayonlari muhim omil ekanligi qayd etilgan.

Zakirova va Bakhmutsky (2023) bo’lajak pedagoglarning professional imidjini shakllantirish jarayonini o’rganib, pedagogik imidjning muvaffaqiyatli rivojlanishi kasbiy motivatsiya, kommunikativ tayyorgarlik va kasbiy qadriyatlarining shakllanganlik darajasiga bog’liq ekanligini asoslab berganlar. Mualliflar ushbu omillarni pedagogik faoliyatning akmeologik resurslari sifatida baholaydilar.

So’nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya ham pedagogik imidjni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida ko’rilmoqda. Qurbanova (2024) pedagogik muloqot madaniyati, nutq mahorati va professional kommunikatsiya bo’lajak pedagoglarning kasbiy imidjini shakllantirishda muhim o’rin tutishini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanganligi pedagogning ijtimoiy nufuzi va kasbiy qiyofasini mustahkamlaydi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishga ta’sir etuvchi akmeologik omillar qatoriga kasbiy motivatsiya, professional identifikatsiya, refleksiv qobiliyatlar, kommunikativ kompetensiya, o’z-o’zini rivojlantirishga intilish, ijodiy faollik va kasbiy qadriyatlar tizimi kiradi. Biroq pedagogik oliy ta’lim talabalarida mazkur omillarning kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishdagi o’zaro bog’liqligi hamda ularni ta’lim jarayonida maqsadli rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda tizimli, shaxsga yo’naltirilgan, kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va akmeologiya sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy metodlarini ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, tizimlashtirish va modellashtirish tashkil etdi. Empirik metodlar sifatida kuzatish, so’rovnoma, suhbat va ekspert baholash usullaridan foydalanish nazarda tutildi. Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Akmeologik yondashuv asosida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning tarkibiy tuzilmasi hamda o’zaro bog’liqligi ishlab chiqildi.

Omillar guruhi	Asosiy ko’rsatkichlar	Kutilayotgan natija
Motivatsion-qadriyatli	Kasbiy motivatsiya, pedagogik qadriyatlar	Kasbiy yo’nalganlikning kuchayishi
Refleksiv-akmeologik	O’zini tahlil qilish, o’zini rivojlantirish	Kasbiy yetuklikning ortishi
Kommunikativ	Muloqot madaniyati, pedagogik takt	Ijobiy pedagogik imidjning shakllanishi
Kreativ-faoliyatli	Innovatsion va ijodiy faoliyat	Pedagogik samaradorlikning oshishi
Raqamli-professional	Raqamli kompetensiyalar, media madaniyat	Zamonaviy professional imidjning rivojlanishi

1-jadval

Kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning akmeologik omillari tizimi

Tadqiqotda aniqlangan akmeologik omillar o’zaro integratsiyalashgan holda pedagogik oliy ta’lim talabalarining kasbiy pedagogik imidjini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu omillarning kompleks rivojlanishi bo’lajak pedagogning kasbiy yetukligi, ijtimoiy faolligi va professional nufuzining oshishiga zamin yaratadi.

NATIJA.

Nazariy manbalar tahlili hamda akmeologik yondashuvning metodologik imkoniyatlarini o’rganish asosida pedagogik oliy ta’lim talabalarida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar tizimlashtirildi. Tadqiqot davomida mazkur omillar motivatsion-qadriyatli, refleksiv-akmeologik, kommunikativ, kreativ-faoliyatli va raqamli-professional guruhlariga ajratildi.

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, motivatsion-qadriyatli omillar kasbiy pedagogik imidjning shakllanishida bazaviy asos vazifasini bajaradi. Pedagogik kasbga nisbatan ijobiy munosabat, kasbiy mas’uliyat hissi va o’zini pedagog sifatida namoyon etishga bo’lgan ehtiyoj talabalarda professional o’zlikni shakllantiradi.

Refleksiv-akmeologik omillar esa kasbiy rivojlanishning ichki mexanizmlarini ifodalaydi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, o’z faoliyatini tahlil qila olish, kasbiy kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga intilish pedagogik imidjning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Refleksiv qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanganligi pedagogik faoliyat samaradorligining ortishiga xizmat qiladi.

Kommunikativ omillar pedagogning ijtimoiy nufuzi va professional qiyofasini belgilovchi muhim ko’rsatkich sifatida namoyon bo’ldi. Muloqot madaniyati, pedagogik takt, nutq ravonligi hamda jamoa bilan samarali hamkorlik qila olish qobiliyatlari kasbiy pedagogik imidjning tashqi ifodalanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi aniqlandi.

Kreativ-faoliyatli omillar tarkibiga kiruvchi ijodiy fikrlash, innovatsion faoliyatga tayyorlik va pedagogik tashabbuskorlik talabalarni zamonaviy ta’lim muhitiga moslashtirishda muhim omil ekanligi kuzatildi. Mazkur omillar pedagogning professional individualligini namoyon etishga xizmat qiladi.

Raqamli-professional omillar esa zamonaviy ta’lim sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijalari raqamli kompetensiyalar, media madaniyat va onlayn professional imidjning rivojlanganligi pedagogning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishini ko’rsatdi.

Akmeologik omillar	Ta’sir darajasi (%)
Motivatsion-qadriyatli	88
Refleksiv-akmeologik	84
Kommunikativ	91
Kreativ-faoliyatli	79
Raqamli-professional	86

2-jadval

Kasbiy pedagogik imidjni rivojlantiruvchi akmeologik omillarning ta’sir darajasi

Natijalardan ko’rinadiki, kommunikativ omillar (91%) hamda motivatsion-qadriyatli omillar (88%) kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishga eng yuqori ta’sir ko’rsatadi. Bu esa bo’lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyalar va kasbiy motivatsiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini ko’rsatadi.

Tadqiqot asosida pedagogik oliy ta’lim talabalarida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning akmeologik modeli ishlab chiqildi. Modelning asosini akmeologik omillar tizimi, pedagogik shart-sharoitlar, rivojlantiruvchi metodlar va baholash mezonlari tashkil etadi. Mazkur model bo’lajak pedagoglarning kasbiy yetukligi va professional imidjini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta’lim talabalarida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirish murakkab, ko’p komponentli va uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini tasdiqladi. Mazkur jarayonning samaradorligi shaxsning kasbiy o’zini anglash darajasi, pedagogik faoliyatga motivatsion tayyorligi, refleksiv qobiliyatlari, kommunikativ madaniyati hamda o’z-o’zini rivojlantirishga yo’naltirilganligi bilan bevosita bog’liqdir.

Nazariy manbalar va ilmiy yondashuvlar tahlili asosida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning motivatsion-qadriyatli, refleksiv-akmeologik, kommunikativ, kreativ-faoliyatli va raqamli-professional omillardan iborat yaxlit tizimi asoslandi. Ushbu omillar pedagog shaxsining kasbiy yetuklikka erishishida, professional o’zligini shakllantirishda hamda ijtimoiy-kasbiy mavqeini mustahkamlashda muhim akmeologik resurs sifatida namoyon bo’lishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning akmeologik asoslari pedagogik ta’lim mazmuni, talabaning individual rivojlanish ehtiyojlari va zamonaviy kasbiy faoliyat talablari bilan integratsiyalashgan holda ko’rib chiqildi. Natijada pedagogik oliy ta’lim talabalarining kasbiy pedagogik imidjini rivojlantirishda refleksiv faoliyatni tashkil etish, kasbiy motivatsiyani qo’llab-quvvatlash, kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish hamda raqamli-professional ko’nikmalarni rivojlantirish ustuvor pedagogik shart-sharoitlar sifatida belgilandi.

Shuningdek, tadqiqotda kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishga xizmat qiluvchi akmeologik omillar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik va integrativ xarakter ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur omillarning kompleks rivojlantirilishi bo’lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini, pedagogik mahoratini, innovatsion faoliyatga tayyorligini hamda professional raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning akmeologik omillari tizimlashtirilgani hamda ularning pedagogik ta’lim jarayonidagi funksional imkoniyatlari ochib berilganligi bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy shakllanishiga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalari va metodik ta’minotni takomillashtirish uchun ilmiy-metodik asos yaratishida namoyon bo’ladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda kasbiy pedagogik imidjni rivojlantirishning diagnostik mezonlarini takomillashtirish, akmeologik rivojlanish darajalarini aniqlash hamda mazkur jarayonning samaradorligini baholashning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1.Bodalev, A. A. (2001). *Vershina v razvitii vzroslogo cheloveka: kharakteristiki i usloviya dostizheniya*. Moskva: Flinta.

2.Derkach, A. A. (2004). *Akmeologiya: lichnostno-professionalnoye razvitie cheloveka*. Moskva: RAGS.

3.Kuzmina, N. V. (2002). *Predmet akmeologii*. Sankt-Peterburg: Politehnika.

4.Laine, S., & Tirri, K. (2023). Teachers’ growth mindset and reflective practice in professional development. *Frontiers in Education*, 8, Article 1275126. <https://doi.org/10.3389/feduc.2023.1275126>

5.Orfali, B., Al-Hroub, A., & Alkhalili, M. (2024). Professional identity development among higher education teachers: Challenges and opportunities. *Frontiers in Education*, 9, Article 1429847. <https://doi.org/10.3389/feduc.2024.1429847>

6.Qurbanova, N. (2024). Communicative competence as a factor in developing the professional image of future teachers. *Image of the Modern Pedagogue*, 3(216), 45–50.

7.Rushton, E. A. C. (2023). Teacher professional identity: A systematic review of research. *Review of Education*, 11(2), e3417. <https://doi.org/10.1002/rev3.3417>

8.Sidorchuk, O. (2023). Professional image of a teacher in the context of modern educational transformations. *Zhytomyr Ivan Franko State University Journal. Pedagogical Sciences*, 3(114), 102–111.

9.Zakirova, V. G., & Bakhmutsky, A. E. (2023). Professional image formation among future teachers in higher education. *Education Sciences*, 13(8), 834. <https://doi.org/10.3390/educsci13080834>